

## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish uchun mo'ljallangan “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish uchun mo'ljallangan “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishga oid ma'lumotlar o'rganiladi hamda tahlil qilinadi;</li> <li>- axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha statistik va zamonaviy kriminalistik tahlil uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasi ishlab chiqiladi;</li> <li>- ma'lumotlar bazasi asosida zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish maqsadida raqamli dalillarning yagona reyestri yaratiladi;</li> <li>- axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash va tahlil qilish, shuningdek uyushgan guruh jinoyi tuzilmalarini identifikatsiyalashga xizmat qiladigan kompleks analitik tizim ishlab chiqiladi;</li> <li>- idoralararo ma'lumot almashinuvi uchun maxsus himoyalangan aloqa tarmog'i yaratiladi;</li> <li>- raqamli dalillarni protsessual normalar va axborot xavfsizligi talablariga muvofiq saqlash va himoya qilish tizimi yaratiladi;</li> <li>- reestrga kiritiladigan kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning kengaytirilgan ro'yxati ishlab chiqiladi;</li> <li>- “Raqamli dalillar yagona reestri”ni shakllantirish va undan foydalanish tartibi ishlab chiqiladi;</li> <li>- “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqiladi;</li> <li>- kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish uchun “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratiladi;</li> <li>- jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari mansabdor shaxslari hamda sud ekspertiza muassasalari ekspert-kriminalistiklarini avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanishda ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Bosh prokuratura tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p>


	<b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
--	--

<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b>
---

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

**Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

**“Huquq fanlari” yo‘nalishi**

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Yoshlar huquqlarini ta'minlashda xalqaro standartlar va milliy qonunchilik asoslari bo'yicha davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining turli qatlamlari vakillari xabardorligini oshirish hamda yoshlar huquqi sohasiga oid ta'lim uchun multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Yoshlar huquqlarini ta'minlashda xalqaro standartlar va milliy qonunchilik asoslari bo'yicha davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining turli qatlamlari vakillari xabardorligini oshirish hamda yoshlar huquqi sohasiga oid ta'lim uchun multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilik asoslari bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlanadi;</li> <li>- turli maqsadli guruhlar (umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari xodimlari va o'quvchi-talabalari, davlat xizmatchilari, nodavlat notijorat tashkilot vakillari, mahalla faollari) uchun yoshlar huquqlarining xalqaro va milliy huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsuloti majmuasi yaratiladi;</li> <li>- yoshlar huquqi bo'yicha o'quv kurslari dasturi, ma'ruzalar matni, qo'llanma, topshiriqlar, mashg'ulotlar, testlar, imtihon-sinov savollari ishlab chiqiladi va chop etiladi;</li> <li>- yoshlar huquqlari bo'yicha axborot tarqatish hamda yoshlar huquqlari ta'limi bo'yicha taqdimotlar, videoma'ruzalar tayyorlanadi va onlayn platforma yaratiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida sinovdan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>

**Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1600 barobari**

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3200 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*